

SAMARQAND VILOYATIDA MADANIY TURIZM RESURSLARIDAN FOYDALANISH STATISTIKASI VA XORIJ TAJRIBASI

R.Anorboyeva

SamISI TFT-122 guruh talabasi

Ilmiy rahbar: PhD S.Babanazarova

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand viloyatida joylashgan madaniy-tarixiy turizm resurslari haqida ma'lumot hamda ulardan foydalanish masalalari yuzasidan statistik ma'lumotlar berilgan. Turizm sohasini yanada rivojlantirish hamda xalqaro turistlar oqimini oshirish maqsadida xorijiy tajribani o'rganish va amalda qo'llash borasida izlanishlar olib borilgan.

Kalit so'zlar: UNWTO, YUNESKO, gidlar, milliy hunarmandchilik, davlat reyestri, elektron katalogi, davlat kadastr, ansambllar, diqqatga sazovor joylar, yodgorliklar, moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari.

Kirish

Turizm industriyasi jahon xo'jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib, milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli soha hisoblanadi. Turizm dunyo yalpi ichki mahsulotining taxminan 5%ini tashkil etadi, rivojlangan mamlakatlarda deyarli 10% aholi turizm sohasida band. COVID-19 pandemiyasi oqibatida turizm sohasi eng katta talafot ko'rgan tarmoqlardan hisoblanadi. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO)ning ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilda xalqaro turizm 72%ga yoki turizm xizmatlaridan tushumlar 1,1 trillion dollarga kamayib, 1990 yil darajasiga tushib qoldi. Natijada 935 mlrd. dollar miqdorida eksport daromadlari yo'qotildi.¹

Ma'lumki, 2020 yil 16 martdan mamlakatimiz tashqi va ichki turistlar uchun yopilgan edi. Oqibatda 1,5 mingdan ortiq turoperator, 1,2 mingta mehmonxona o'z faoliyatini to'xtatdi. Bular, gidlar, milliy hunarmandchilik, ziyoratgoh va sihatgohlar, umumiy ovqatlanish, transport va boshqalar bilan qo'shib hisoblaganda 250 mingdan ortiq aholi daromadiga jiddiy ta'sir qildi.

O'zbekistonda tarixiy yodgorliklar, ulug' ajdodlarimizning yuksak iste'dodi bilan bunyod etilgan obidalar, muqaddas qadamjolar kabi 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Shu sababli, keyingi yillarda davlatimiz tomonidan mazkur yo'nalishni rivojlantirish bo'yicha ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6-apreldagi "Turizm, sport va madaniy meros sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PF-6199 sonli Farmoni²ga binoan Turizm va sport vazirligi huzurida Madaniy meros agentligi

¹ Международный туризм сократился в 2020 году до уровня 1990 год. <https://www.interfax.ru/>

² O'zbekiston Respublikasining "Turizm, sport va madaniy meros sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PF-6199- farmoni.2021 yil 6-aprel. [//www.lex.uz](http://www.lex.uz)

tashkil etildi. Moddiy madaniy meros ob'yektlarini aniqlash, hisobga olish, muhofaza qilish, targ'ib qilish davlat reyestri, elektron katalogi, davlat kadastrini yuritish, qo'riqlanadigan tegralarini belgilash hamda sohada davlat nazoratini amalga oshirish kabilar agentlikning asosiy vazifalari sifatida belgilanganligi mamlakatimizda tarixiy-madaniy turizmni yanada rivojlantirishga oid tizimli ilmiy-metodologik tadqiqotlar olib borish muhim.

Shunday qilib, tarixiy-madaniy turizmning hozirgi holatini, uni rivojlantirish istiqbollari va milliy iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilish dolzarbdir. Bunda eng avvalo "tarixiy-madaniy turizm" tushunchasining mazmunini aniqlash lozim.

"Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Prezident qarorining 3-moddasi ya'ni "Asosiy tushunchalar"ga muvofiq quyidagi atamalar kiritilgan:

- ansambllar – tarixan tarkib topgan hududda aniq ko'zga tashlanadigan, atrof manzarasi bilan umumiyligi yoki aloqadorligi tarixiy, arxeologik, me'moriy, estetik yoki ijtimoiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan, ijtimoiy, ma'muriy, diniy, ilmiy, o'quv-ta'lim, istehkom, saroy, turarjoy, savdo, ishlab chiqarish va boshqa ahamiyatga molik hamda rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, me'morchilik asarlari bilan bog'liqlikda alohida yoki o'zaro birgalikda turgan yodgorliklar, imoratlar va inshootlar guruhlari, shuningdek tarixiy tarhlarning hamda manzilgohlar imoratlarining qoldiqlari, landshaft arxitekturasi va bog'-rog' san'ati asarlari (bog'lar, istirohat bog'lari, xiyobonlar, sayilgohlar);
- diqqatga sazovor joylar – inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarhi markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek ko'hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar;
- yodgorliklar – tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ayrim imoratlar, binolar va inshootlar, ular bilan bog'liq bo'lgan rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati asarlari hamda shu imoratlar, binolar va inshootlarning tarixan tarkib topgan hududlari, shuningdek memorial uylar, kvartiralar, qabristonlar, maqbaralar va ayrim qabrlar, monumental san'at asarlari, fan va texnika (shu jumladan harbiy texnika) obyektlari, antropologiya, etnografiya, numizmatika, epigrafika, kartografiya, fotografiya

materiallari, kinofilmlar, audio-, video yozuvlar hamda boshqa jismlardagi yozuvlar, adabiyot va san'at asarlari, arxiv, qo'lyozma va chizma hujjatlar, qadimgi qo'lyozma kitoblar, harf terish usulida chiqarilgan dastlabki kitoblar, nodir va noyob nashrlar, notalar, muqaddas buyumlar va memorial xususiyatga ega bo'lgan ashyolar, tosh haykallar, qoyaga o'yib solingan tasvirlar, arxeologiya yodgorliklari;

- madaniy meros obyektlari – moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari;
- moddiy madaniy meros obyektlari – tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar;
- nomoddiy madaniy meros obyektlari – tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar.

Madaniy turizm tarixiy, madaniy yoki geografik diqqatga sazovor joylarga tashriflarni o'z ichiga olishi bilan boshqa turizm yo'nalishidan ajralib turadi. Madaniy turizm turizmning eng ommaviy turi hisoblanadi. Bunday sayohatlarning asosiy maqsadi turistik diqqatga sazovor joylar tarix, arxitektura, san'at yodgorliklari; tabiiy va etnik xususiyatlar; xalqning tarixiy va zamonaviy hayoti va etnografik madaniyati xalq hunarmandchiligi bilan tanishishdan iboratdir.

Samarqand viloyati o'zining turistik salohiyati boyicha nafaqat O'zbekistonda, balki dunyoda ham mashhurdir. Viloyatdagi tarixiy, arxitektura va arxeologik obidalar tabiiy rekreatsiya maskanlari, diniy qadamjolar hamda o'ziga xos madaniy-etnografik ananalar mintaqa turizm xazinasini hisoblanadi.

Samarqand viloyati statistika boshqarmasining 2023-yil 1-yanvar holatiga taqdim etgan ma'lumotlariga ko'ra viloyatda jami 1607 ta moddiy-madaniy meros obyektlari ro'yxatga olingan.


1-jadval

№	Obyekt turi	Soni
1.	arxeologiya yodgorliklari	975 ta
2.	arxitektura yodgorliklari	562 ta
3.	monumental san'at yodgorliklari	36 ta
4.	diqqatga sazovor joylar	34 ta

Samarqand viloyatida turistik ob'ektlarni o'rganish va baholash, mintaqa turizmini rivojlantirish hamda hududiy tashkil etishda quyidagi masalalarga ahamiyat berish lozimdir:

- turizmni milliy va mintaqaviy iqtisodiyotdagi orni hamda uning oziga xos jihatlarini asoslab berish;
- turizmni iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning oziga xos yonalishi sifatida organish;
- Samarqand viloyatida turizmni tashkil etish va uni rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlarni tahlil qilish va baholash;
- mintaqani turistik jihatdan rayonlashtirish va turistik marshrutlarni aniqlash;
- Samarqand viloyatida turizmning rivojlanish muammolarini tadqiq etish va ularni ilmiy asosda echish bo'yicha ustuvor yonalishlarni belgilash va h.k.

1. Samarqand viloyati madaniy turizm resurslariga turistlarning tashrif buyurishi:



2. Turistlar xarajatlari (gipotetik ma'lumotlar):

2021 (pandemiya ta'sirida):

- Turizmning umumiy xarajatlari: 45 million dollar
- Bir turistning o'rtacha kunlik xarajatlari: \$165

2022 (pandemiyadan keyingi tiklanish yili):

- Turizmning umumiy xarajatlari: 60 million dollar
- Bir turistning o'rtacha kunlik xarajatlari: \$180

2023 yil (tiklanishdan keyingi va o'sish davri):

- Turizmning umumiy xarajatlari: 100 million dollar
- Bir turistning o'rtacha kunlik xarajatlari: \$220

3. Turish muddati (gipotetik ma'lumotlar):

2021 (pandemiya ta'sirida):

- O‘rtacha qolish muddati: 4 kun
2022 (pandemiyadan keyingi tiklanish yili):
- O‘rtacha qolish muddati: 6 kun
2023 yil (tiklanishdan keyingi va o‘shish davri):
- O‘rtacha qolish muddati: 7 kun

4. Turistlarning qoniqish darajasi (gipotetik ma'lumotlar):

- 2021 (pandemiya ta'sirida):
- Turistlarning umumiy qoniqish darajasi: 4,2/5
- 2022 (pandemiyadan keyingi tiklanish yili):
- Turistlarning umumiy qoniqish darajasi: 4,8/5
- 2023 yil (tiklanishdan keyingi va o‘shish davri):
- Turistlarning umumiy qoniqish darajasi: 4,9/5

Xulosa

Madaniy turizm sohasini o‘rganish va rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj inson uchun madaniy-ma'rifiy faoliyatning muhim rolini tushunish, tarix, din, an'analar, turmushtarzi va uslubining o‘ziga xos xususiyatlarini, umuman, boshqa xalqlarning madaniyatini bilish uchun insonning madaniy ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarish uchunshart – sharoitlar yaratish zarurligini e'tirof etishga asoslanganligini bilamiz. Inson hayotining bu tomonlarini yanada yaxshiroq tushunish madaniy turizm tufayli madaniyat egalari bilan bevosita muloqot qilish natijasida shakllanib boradi.

Samarqand viloyatida joylashgan madaniy turizm resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida xorij davlatlarning tajribalarini o‘rganishi hamda amalda qo‘llash lozim bo‘ladi. Yaponiya, Ispaniya, Italiya kabi davlatlarning tajribasini qo‘llash orqali xorijiy turistlar oqimini bosqichma-bosqich jalb etish mumkin. Misol uchun: Yaponiya – turistlarni o‘ziga jalb qilish borasida madaniy tajribalarni sinab ko‘rgan. Misol uchun Yaponiya an'anaviy san'at, hunarmandchilik va urf-odatlariga qiziqqan sayyohlarni o‘ziga jalb etadigan o‘zining chuqur madaniy tajribalari bilan mashhur. Kioto va Tokio kabi shaharlarda choy marosimlari, xattotlik ustaxonalari, kimono kiyish va samuray tajribalari kabi keng ko‘lamli madaniy tadbirlar taklif etadi.

Samarqand viloyatida Yaponiyaning yondashuvidan manfaatli foydalanishi mumkin:

- Amaliy-mahorat darslarini taklif qilish - sayyohlarga kulolchilik, shoyi to‘qish, gilamdo‘zlik va miniatyurachilik kabi an'anaviy hunarmandchilikni o‘rganish imkoniyatini berish;

• Madaniy chiqishlar - tashrif buyuruvchilarni jalb qilish va madaniy almashinuvni rivojlantirish uchun o‘zbek musiqasi, raqsi, teatri va hikoyasini namoyish qiluvchi madaniy chiqishlarni tashkil etish;

• Oshpazlik tajribalari - O‘zbek oshxonasi va mahalliy o‘ziga xosliklarini ta’kidlaydigan pazandachilik sayohatlari, pazandachilik kurslari va taomlarni ta’tib ko‘rish bilan tanishish, umumiy madaniy imunitetini kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5326-son Farmoni.-Toshkent shahri, 2018 yil 7 fevral
2. Международный туризм сократился в 2020 году до уровня 1990 год.
<https://www.interfax.ru/>
3. Abduhakimov A. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish istiqbollari va uni mamlakat iqtisodiyotiga ahamiyati.-Uzbekistan Today.-2018
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Turizm>
5. <https://uzbekistan.travel/uz/turizm-qonunlari/#>
6. X.M.Mamatkulov. Turizm va servisga oid izohli lug‘at. -Samarqand, 2010.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oliy Majlisga Murojaatnomasini o‘rganish va keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib etishga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop qo‘llanma [Matn]. – T.: “Ma’naviyat”, 2019. – 312 bet.
8. Aliyeva M.T., Umarjonov A. Turistik mamlakatlar iqtisidoyoti. –T.: Moliya, 2018.
9. I.A. Axmedov, A.A.Allaberganov. Turizm faoliyatini tashkil etish –T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” 2019.